



PAPER

## ABDUVAHOB MADVALIYEV – ZAKIY LUG‘ATSHUNOS

Jo‘rayeva Dilorom Ulug‘bek qizi<sup>1,\*</sup>

<sup>1</sup>Qo‘qon davlat universiteti magistranti

\* jurayevadiloramxon@gmail.com

### Abstract

Mazkur maqolada izohli lug‘atlarda terminlarning leksikografik talqini masalasi ilmiy- nazariy jihatdan tahlil etadi. Muallif terminlarning lingvistik xususiyatlari, ularning umumxalq leksikasidan farqli jihatlari hamda izohli lug‘at tarkibidagi o‘rni va funksiyalarini asoslab beradi.

**Key words:** termin, izohli lug‘at, leksikografiya, semantika, til tizimi.

### Kirish

Insonning qadr-qimmati uning necha yil umrguzaronlik qilgani bilan emas, balki qanday umr ko‘rgani, jamiyatga qanchalik naf keltirgani, ezgu amallarining salmog‘i bilan o‘lchanadi. O‘zbek tilshunosligining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan atoqli olim, tinib- tinchimas zakiiy lug‘atshunos, mohir pedagog, filologiya fanlari doktori, professor Abdurahob Madvaliyevdir. Uning ilmiy faoliyati o‘zbek tilining rivoji, lingvistik nazariyalarni takomillashtirish va amaliy tilshunoslik masalarini yoritishga qaratilgan.

Madvaliyev o‘zbek tilshunosligida muhim ilmiy maktab yaratgan olimlardan biridir. U tilning ichki tuzilishi, strukturasi va funksional jihatlarni o‘rganishga katta e‘tibor qaratgan. Tilshunoslik fanining dolzarb muammolarini ilmiy asosda yoritish, til tizimini kompleks o‘rganish, semantic

va leksik qatlamlarni tahlil qilish, shuningdek, lug‘atshunoslikni rivojlantirish olim faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Olim o‘z ilmiy faoliyatida tilshunoslikning fundamental va amaliy yo‘nalishlarini uyg‘un holda rivojlantirgan olimdir. Uning ilmiy izlanishlari quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi: leksikologiya va frazeologiya, semasiologiya va semantika, terminologiya hamda lug‘atshunoslik.

### Asosiy qism

Abdurahob Madvaliyev ilmiy faoliyati davomida til hodisalarini chuqur nazariy tahlil qilish, ularning ichki qonuniyatlarini aniqlash va zamonaviy lingvistik metodlar asosida talqin etishga katta hissa qo‘shgan. Uning lingvistik qarashlari o‘zbek tilining strukturaviy, funksional hamda semantic jihatlarni kompleks o‘rganishga qaratilganligi

Compiled on: May 2, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Humanities for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

bilan ajralib turadi. Madvaliyevning nazariy qarashlari, avvalo, tilni tizimli hodisa sifatida talqin etishga asoslanadi.

O'zbek tilshunosligida lug'atshunoslik alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib, tilning leksik boyligini tizimli ravishda o'rganish va tartibga solishda alohida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur sohaning rivojiga sezilarli hissa qo'shgan olimlardan biri Abduvahob Madvaliyev hisoblanadi. Uning ilmiy merosi o'zbek tilining lug'aviy tarkibini chuqur tahlil qilish, so'z ma'nolarini izohlashda hamda ularni tizimlashtirishga qaratilgani bilan ajralib turadi. Shu jihatdan olim zakiy lug'atshunos sifatida e'tirof etiladi.

Lug'atshunoslik tilshunoslikning muhim tarmoqlardan biri bo'lib, u so'zlarning ma'nosi, qo'llanilishi va tizimdagi o'rnini o'rganadi. Leksikografiya nazariyasiga ko'ra, lug'at tuzish jarayoni faqat amaliy faoliyat emas, balki chuqur ilmiy yondashuvni talab etuvchi murakkab jarayondir. A.Madvaliyev aynan shu jihatlarni asoslab, Lug'atshunoslikni nazariy va metodologik asoslar bilan boyitgan.

### Muhokama

Lug'atshunoslikka doir "Izohli lug'atda terminlarning leksikografik talqiniga doir" nomli maqolasida terminlarning leksikografik talqini masalasiga bag'ishlangan. Bunda o'zbek tilshunosligida muhim nazariy- metodologik yo'nalishlardan birini yoritadi. Olim bu maqolasida izohli lug'atlar tarkibida terminlarning berilishi muammosini lingvistik jihatdan asoslab beradi. Unga ko'ra, izohli lug'at nafaqat umumxalq leksikasini, balki ilmiy terminologiyani ham o'z ichiga olish zarur. Chunki zamonaviy til taraqqiyoti ilm-fan va texnika rivoji bilan chambarchas bog'liq bo'lib, terminlar tilning faol qatlamiga aylangan. Bu muammo esa leksikografiya va terminologiya o'rtasidagi uzviy aloqani ko'rsatadi. Ustozning maqolasida terminlarni izohlashning bir qator asosiy prinsiplari ishlab chiqilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

a) aniqlik va qat'iylik - termin izohi maksimal darajada aniq va qisqa bo'lishi kerak. Madvaliyevga ko'ra, izohda ortiqcha izohiylik yoki subyektivlikka yo'l qo'yilmasligi zarur.

b) ilmiylik va konseptuallik- termin izohi ilmiy

tushunchaning muhim belgilarini aks ettirishi lozim. Ya'ni, ta'rif mantiqiy jihatdan asoslangan va ilmiy muhitda qabul qilingan bo'lishi kerak.

c) tizimlilik - terminlar muayyan tizimga mansub bo'lgani sababi, ularning izohi boshqa terminlar bilan o'zaro bog'liqlikda berilishi zarur. Bu esa terminologik tizimni yaxlit holda anglash imkonini beradi.

d) funksional yondashuv- termin faqat nazariy birlik emas, balki amaliy nutqda qo'llanuvchi vosita hamdir. Shuning uchun uning qo'llanish doirasi va kontekstual xususiyatlari ham hisobga olinishi kerak.

Bundan tashqari esa ikki tilli (ruscha - o'zbekcha va o'zbekcha - ruscha) lug'atlarda terminologiyaning leksikografik talqini masalalari bilan maxsus shug'ullangan S.F.Akobirov terminlar va terminologik tizimlar ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra ham bir - birdan farq qilinishi, shu nuqtai nazardan ijtimoiy- siyosiy terminologiya barcha milliy tillar uchun birday ahamiyatli bo'lganligidan barcha ikki tilli lug'atlarga ham bir xil va to'liq hajmda kiritilishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlashi aytib o'tilgan.

Izohli lug'atga sifat va miqdor jihatidan zaruriy terminlar tanlab olingandan keying jarayon ular asosida mustaqil lug'at maqolalarini shakllantirishdan iborat. A.Hojiyev tomonidan tayyorlangan va yuqorida eslatib o'tilgan "O'zbek tilining ko'p jildli izohli lug'atini tuzuvchilar uchun yo'riqnoma"da belgilanganidek, bosh so'z va unga oid materiallar lug'at maqolasini tashkil etadi. Lug'at maqolasini tashkil etuvchi komponentlar haqida A.Madvaliyev quyidagilarni yozadi: 1. Lug'atning birliklari: a) bosh so'z; b) turg'un iboralar. 2.Etimologik ma'lumot. 3. Grammatik va uslubiy xarakteristika (uni qayd etuvchi belgilar). 4. Lug'at birliklari ma'nosini belgilash va qayd etish. 5. Izoh. 6. Tasdiqlovchi misol, illyustrativ sitatalar.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun olim quyidagi takliflarni beradi: a) terminlarni standartlashtirish;

b) yagona leksikografik mezonlarni ishlab chiqish;

c) fan sohalari mutaxasislari bilan hamkorlikda izohlar tayyorlash;

## Xulosa

Abduvahob Madvaliyevning “Izohli lug‘atlarda terminlarning leksikografik talqini” haqidagi maqolasi nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Unda terminlarni izohlashning ilmiy prinsiplari asoslab berilgan bo‘lib, ular zamonaviy lug‘atshunoslik rivojiga muhim hissa qo‘shadi. Mazkur yondashuvlar tilshunoslikning dolzarb muammolarini hal etishda samarali metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

## References

1. O‘zbek tilining ko‘p jildli izohli lug‘atini tuzuvchilar uchun yo‘riqnoma( tuzuvchi: A.Hojiyev ). – Toshkent,2000.- B.9. Lug‘at maqolasi va uning ba’zi komponentlari haqida bildirgan mulohazalarimizda ana shu “ Yo‘riqnoma”dan foydalangandik.
2. Madvaliyev A. O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent, 2017.
3. Gaziyeva Maftuna, Pirmatova (Jo‘rayeva) Dilorom Terminologik lug‘atlar hamda ularning afzalliklari. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. 1-5-betlar.
4. М Газиева Просодика. Тошкент: Академ-нашр, 2019.
5. Gaziyeva Maftuna, Pirmatova (Jo‘rayeva) Dilorom O‘zbek terminologiyasining leksikogenetik xususiyatlari.
6. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI 3 (5) , 230- 236 betlar , 2023 .
7. Pirmatova (Jo‘rayeva) Dilorom “Qo‘shma so‘z va qo‘shma terminlarning birlashtiruvchi hamda farqlovchi tomonlari . BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI , 492 -496 betlar